O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 05-06-2025 yil

# YIG'MA EKSPERT XULOSASI

244467 - SONLI

| | |
|---|---|
| **Obyekt nomi:** Лойиҳалаштирилаётган “Кўп қаватли турар-жой ва меҳмонхона” биноларини мухандислик тармоқлари билан таъминлаш.(Асосий режа бўйича 5,7,8 рақамдаги бинолари) | |
| **Buyurtmachi:** | GREENPARK DEVELOPMENT MCHJ |
| **Bosh loyihachi:** | "ARCHITECH" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT |
| **Moliyalashtirish manbai:** | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan |
| **Bosh pudratchi:** | Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi. |
| **Qurilish turi:** | Yangi qurilish |
| **Murojaat raqami:** | 009491 |

**1. Loyihalash uchun asos.**

1.1. Toshkent shahar hokimining 2018-yil 29-dekabrda berilgan 1883-sonli qarori.

1.2. Belgilangan tartibda 2021-yil 27-dekabrda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2024-yil 11-martdagi №1726-1726287-181478-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent shahar hududiy filiali tomonidan 2023-yil 08-noyabrda berilgan 05-1719-sonli texnik sharti.

1.5. “HUDUDGAZ POYTAXT” Gaz ta’minoti filiali tomonidan 2022-yil 26-mayda berilgan 59777-T-sonli texnik sharti.

1.6. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJ tomonidan 2022-yil 13-iyunda berilgan 270/4-1572-sonli texnik sharti.

1.7. Bosh loyiha tashkiloti va sub. loyiha tashkiloti o‘rtasida 2025-yil 20-fevralda tuzilgan 04/02-25-sonli loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash uchun shartnoma.

1.8. 2019-yil aprelda «LOYIHA TADQIQOT» MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. Konstruktiv hisob-kitobi.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

*3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.*

Tashqi havo harorati -13,6°S.

Normativ shamol bosimi - Wo = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - Sn = 0,50 kPa.

Hududning taxminiy seysmikligi - 9 ball.

Binoning poydevori uchun MGE-3 gruntlari xizmat qiladi.

Elementning quvvati 9,8-12,9m.

Yer osti suvlari yer yuzasidan 3,4-4,0m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi– 0,70m.

qoplangan.

*3.2. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.*

Yangi 3 ta 16-qavat ko‘p xonadonli shundan 2 ta Blok-V va 1 ta Blok-G turar-joy binolari Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 73-uy manzilida joylashgan.

***Turar-joy binosi (Blok V)*** – 16 qavatli, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, yerto‘lali, rejadagi tarx o‘lchami 61,6x16,0m.

Bino 19-10 o‘qlarida 16 qavatdan iborat bo‘lib, yon tomondan 10-1 o‘qlarida 13 qavatgacha pog‘anili pasaytirilgan.

Binoning qavatlari balandligi: yer osti qavatining balandligi h=4,1m; 1-qavat balandligi h=5,1m; 3-qavatdan oxirgi qavatigacha qavatlar balandligi h=3,3m (poldan polgacha).

Bino yerto‘lasi texnik xonalar, muhandislik tarmoqlari uchun mo‘ljallangan xonalar, avtomobillar turargohi va boshqalar mavjud.

Binoning 1 qavatida noturar joy va ko‘makchi xonalar, yuqori qavatlarida xonadonlar ko‘zda tutilgan.

Turar-joy binosida umumiy 143 dona xonadon mavjud.

1 xonali – 50 dona;

2 xonali – 36 dona;

3 xonali – 44 dona;

4 xonali – 11 dona;

5 xonali – 2 dona.

*Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.*

| | | |
|---|---|---|
| Qurilish maydoni | – | 990,0 m² |
| Umumiy maydon | – | 11 302,5 m² |
| Qurilish xajmi, | – | 77 800,0 m³ |

***Turar-joy binosi (Blok G)*** – 16 qavatli, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, yerto‘lali, rejadagi tarx o‘lchami 72,0x17,6-16,0m.

Bino 1-17 o‘qlarida 16 qavatdan iborat bo‘lib, yon tomondan 17-20 o‘qlarida 14 qavatgacha pog‘anili pasaytirilgan.

Binoning qavatlari balandligi: yer osti qavatining balandligi h=4,1m; 1-qavat balandligi h=5,1m; 3-qavatdan oxirgi qavatigacha qavatlar balandligi h=3,3m (poldan polgacha).

Bino yerto‘lasi texnik xonalar, muhandislik tarmoqlari uchun mo‘ljallangan xonalar, avtomobillar turargohi va boshqalar mavjud.

Binoning 1 qavatida noturar joy va ko‘makchi xonalar, yuqori qavatlarida xonadonlar ko‘zda tutilgan.

Turar-joy binosida umumiy 190 dona xonadon mavjud.

1 xonali – 102 dona;

2 xonali – 28 dona;

3 xonali – 31 dona;

4 xonali – 29 dona.

*Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.*

| | | |
|---|---|---|
| Qurilish maydoni | – | 1 100,0 $m^2$ |
| Umumiy maydon | – | 14 803,6 $m^2$ |
| Qurilish xajmi, | – | 70 200,0 $m^3$ |

*Xonalarni ichki bezatishlar:*

Devorlar–yaxshilangan suvoq, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, xojatxonalarda keramik plitalar bilan qoplangan.

Shift –tekislangan, bo‘yoq bilan bo‘yalgan.

Pollar –laminat, keramik plita, beton va boshqalar.

Eshiklar –MDF, PVX va metalldan iborat.

Romlar –PVX, va boshqalardan iborat.

*Tashqi bezatish:*

Devorlar – dekorativ suvoq va fasad bo’yog’i bilan bo’yalgan.

Poypesh – italogranit plitalari bilan qoplangan.

*3.3. Konstruktiv yechimlari.*

***Turar-joy binolarining*** konstruktiv sxemasi qattiq diafragmalar va ustunlarga ega pog‘onali monolitik temir-beton rama hisoblanadi.

Poydevorlar - 2000 mm qalinlikdagi yaxlit temir-beton plita, beton sinfi B30.

Yerto‘la tirgak devorlari – 400 mm qalinlikdagi yaxlit temir-beton, beton sinfi B25.

Ustunlar – ko’ndalang kesim yuzalari 600x600 mm, 500x500 mm, 400x400 mm bo’lib, quyma yaxlit temirbeton, beton sinfi B30.

To’sinlar – ko’ndalang kesim yuzalari 400x740(h) mm, 400x500(h) mm, 400x400 mm bo’lib, quyma yaxlit temirbeton, beton sinfi B30.

Bikrlik diafragmasi (diafragma jestkosti) – 400, 300, 200 mm qalinlikdagi quyma yaxlit temirbeton, beton sinfi kl.B30.

Orayopma–160 mm qalinlikdagi quyma yaxlit temirbeton, beton sinfi kl.B30.

Devorlar – tashqi va ichki devorlar 400, 200 mm, pardadevorlar 200 mm qalinlikdagi D 500 markali gazablok.

Zinapoyalar – quyma yaxlit temirbeton plita, beton sinfi B30.

*3.4. Yong‘in xavfsizligi.*

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Binoning funksional yong‘in xavf turi – F1.3.

Loyihada qo‘riqlash va yong‘in xavfida xabar berish tizimi ko‘zda tutilgan. Yong'inni o'chirish yong'in gidrantlaridan amalga oshiriladi. Bino atrofida o't o'chirish mashinalari uchun yo'laklar mavjud.

*3.5. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.*

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

*3.6. Energiya tejamkorlik.*

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

-devorlar, qoplamalar va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan, shuningdek deraza va eshiklar konstruksiyalari issiqlik texnikasiga oid hisob-kitoblarga muvofiq ishlangan;

-tom qismiga -50 mm qalinlikdagi ekstruzion penapolistirol;

-pol-30 mm ekstruzion penapolistirol;

-binoni LED lampalar asosan yoritish uchun ishlatiladi;

-harkatni sezuvchi dachiklar o‘rnatilishi;

-har bir turar joy binosining tom qismiga 685 Vt quvvatga ega jami 36 dona quyosh panellari o’rnatilishi loyihada ko‘zda tutilgan.

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshirig‘i).

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2022-yil 03-fevraldagi 36881-sonli xulosasi;

- “Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2021 yil 29 dekabrdagi 04-1916-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi;

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O‘rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (2024-yil 13-sentabrdagi 1038-3-sonli ilmiy xulosasi).

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga:

- ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi tavsiya etiladi;

- buyurtmachi ishchi loyihaning tashqi muhandislik tarmoqlari bo‘limlarini ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda ekspertiza ko‘rigiga taqdim qilishi shart.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki

ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

**7. Xulosalar.**

7.1. «Loyihalashtirilayotgan “Ko‘p qavatli turar-joy va mehmonxona” binolarini muxandislik tarmoqlari bilan ta’minlash. (Asosiy reja bo‘yicha 5,7,8 raqamdagi binolari)» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

**Bosh ekspert:** Mirbobayev Zakir Xusnitdinovich.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Do‘smurzayev Sohibjon Zakirovich, Xatamov Nurbek Choriyevich, Sur’atov Xusan Tulqin O‘g‘li, Musayev Rustam Talatovich, Tursunov Rovshan Xasildjanovich, Maxmudov Sobir Rashidovich